

O'ZBEK MEDIADISKURSINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI: NUTQ AKTLARI TAHLILI

Nazirqulova Dilrabo Zafariddin qizi


O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola o'zbek mediadiskursida nutq aktlarini nazariyasining namoyon bo'lishini pragmatik jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda J.L.Ostin va J.Serl tomonidan ishlab chiqilgan nutq aktlarining asosiy turlari(assertivlar, direktivlar, ekspressivlar, komissivlar va deklarativlar) o'zbek ommaviy axborot vositalari materiallari misolida ko'rib chiqiladi. Maqolada har bir nutq akti turning o'zbek mediadiskursidagi lingvistik xususiyatlari, kommunikativ maqsadlari va auditoriyaga ta'siri aniqlanadi. Tahlil jarayonida nutq konteksti va diskursiv omillarning ahamiyati ham ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari o'zbek tilshunosligida mediadiskursni pragmatik nuqtai nazardan o'rganishga qiziqish bildirgan tadqiqotchilar uchun foydali manba vazifasini o'taydi.

Kalit so'zlar: o'zbek mediadiskursi, nutq aktlari nazariyasi, nutq aktlari, assertivlar, direktivlar, ekspressivlar, komissivlar, deklarativlar, pragmatik tahlil, kommunikatsiya, lingvistik xususiyatlar.

Kirish. Tilshunoslik sohasida hozirgi kunda ko'plab olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilayotgan, dunyo va mahalliy tilshunoslari tomonidan katta va o'ziga xos qiziqishga sabab bo'layotgan, fan sohasida nisbatan anchagina yangi va navqiron bo'lgan lingvopragmatika yo'nalishi o'zbek tilshunos olimlarini ham bee'tibor qoldirmadi. Lingvopragmatika tushunchasining o'ziga, aynan kelib chiqish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, yuqorida ta'kidlaganimizdek, anchagina yosh va hali olimlar tomonidan ochilib ulgurmagan, tadqiq qilinmagan bir talay ilmiy yangiliklarga ega ekanligini ta'kidlashimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya Tadqiqot davomida o'rganilgan, tahlil qilingan, ilmiy ishlari, ko'plab maqolalar shuni ko'rsatadiki, lingvistikating bu yo'nalishi dastlab Yevropa tilshunoslida yuzaga kelib, yevropa olimlarining bir qancha ilmiy ishlari, maqolalarida uning ta'rifi yoritib berilishga, uni bir necha rakurslardan o'rganilishiga sabab bo'lgan. Boshqa bir qancha fan sohalari singari lingvopragmatika o'z –o'zidan alohida fan tarmog'i bo'lib shakllanishidan oldin, ya'ni pragmatika termining hozirgi zamonaviy tilshunoslikda yuzaga kelib, olimlar tomonidan faol qo'llanilishi bir qancha etaplarni bosib o'tishga sabab bo'lgan. Pragmatika yo'nalishining ilk asoschilaridan biri Charlz Morris avvalo, belgilar ilmining umumiyligi shaklini yoki semiotika fanini o'rganish barobarida tadqiqotning uchta bir-biridan farq qiladigan tarmoqlarini: **sintaktika (yoki sintaksis)**, ya'ni, "belgilarning bir-biri bilan formal munosabati ilmini", **semantika** – "lingvistik belgilarning ular qo'llaniladigan ya'ni anglatadigan obyektlar bilan munosabati ilmi" (ularning ma'nolari), va **pragmatika**, ya'ni "belgilarning tarjimonga




munosabati ilmi” ni ajratib ko’rsatadi. [Levinson, 2008:1]

Charlz Morrisning bu boradagi fikrlari, qarashlari biroz umumiyoq bo’lganligi, hamda pragmatikaning vujudga kelishini bevosita semantika bilan bog’laganligi jihatdan, aniq bir lingvopragmatika sohasini to’laligocha yoritib berilgan ta’rif deb baholay olmaymiz.

S.Levinson o’zining “Pragmatika” nomli kitobida, ushbu til sohasining kelib chiqishi haqida bir qancha olimlarning qarashlari, nazariyalarini taqdim etar ekan, Ch.Morris, Karnap, Martin, Bar-Hillel, Montag kabilarning ilmiy fikrlarini tahlil qilib, xulosa qiladiki, Pragmatika atamasining keng qo’llanilishi, bevosita Morrisning semiotikaning bir bo’limidan ajralib chiqqan nazariyasiga asosan psixologik va sotsiologik hodisalarining ulkan doirasini o’rganish yoki, Karnapning anglashicha, agentlarga ishora qiluvchi ma’lum bir tushunchalarni o’rganish, yoki hozirgi kunda pragmatikaning o’rganilishining asosi bo’lib xizmat qilayotgan Angliya-Amerika tilshunosligi va falsafasidagi qarash va nazariyalar bilan bog’liq deb hisoblaydi. U o’zining “Pragmatika” kitobida, pragmatika tushunchasiga izoh berishga, ta’riflashga harakat qiladi. “Pragmatika til va kontekst o’rtasidagi grammatiklashtirilgan yoki til tuzilishida kodlangan munosabatlarni o’rganish ilmidir, boshqacha qilib aytganda, pragmatika til va kontekst o’rtasidagi munosabatlarning grammatikani yozishga taalluqli jihatlarini o’rganishdir, deyish mumkin” [Levinson 2008:9]

Yana bir, zamonaviy lingvistik pragmatikaning ko’zga ko’ringan olimlaridan biri Y.Mey, tilshunoslikning bu sohasiga “lingvistika deb nomlanuvchi ulug’ bir fan sohasining eng yosh subdistiplinasi” deb ta’rif beradi.[Mey 1994:3261]. Gunter Senft o’zinining “Pragmatikani tushunish” (2014)kitobida keltirishicha, Mey va yana boshqa bir qator olimlar pragmatikaning yuksalishi va uning 1970-yillardan beri mashhurligi va ta’sirining o’sib borishiga hech bo’lma ganda qisman Amerika struktur tilshunosligining rivojlanishiga reaksiya sifatida qarashadi, bu esa Noam Xomskyning “mutlaqo bir xil nutq hamjamiyatida ideal so’zlovchi/tinglovchi” tushunchalarini yaratishi bilan yakunlangan[Xomskiy 1965:3]

O’zbek pragmalingvistikasining shakllanishida professor M.Hakimovning fundamental “O’zbek pragmalingvistikasi asoslari” monografiyasining tahlili shuni ko’rsatadiki, Hakimovning qarashlariga ko’ra, pragmatikaning falsafiy ildizlari Ch.S.Pris, J.R.Ostin, J.R.Serl kabi olimlarning g’oyalari bilan bog’lanadi hamda nutqiy akt nazariyasi, ma’nuning pragmatik tahlili, referentsiya tushunchalarining o’zbek tilshunosligi uchun nazariy ahamiyati olib beriladi. Muallifning semantika va pragmatikaning farqini V.V.Petrov qarashlari orqali tushuntirishi, o’zbek tilidagi kommunikativ jarayonlarni tahlil qilishda kontekstual omillarning chuqur tahlili zarurligini ko’rsatadi. Monografiyada pragmalingvistikaning umumiy (kontekst, nutqiy etiket, sotsial xoslanish, modal aspektlar, diskurs nazariyasi, presuppozitsiya) va xususiy masalalari o’zbek tili materialida keng yoritiladi. Xususan presuppozitsiyaning kommunikativ jarayondagi roli va uning o’zbek tilidagi



lingvistik vositalar orqali ifodalanishibatafsil tahlil etiladi. Professor M.Hakimovning ushbu fundamental ishi o'zbek tilshunosligida pragmatik tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy platforma yaratdi va keying ilmiy izlanishlarga yo'l ko'rsatdi.

Natijalar. Lingvopragmatikaning zamonaviy lingvistika doirasidagi o'rni va ahamiyatini chuqur tahlil qilish, uning markaziy tushunchalari-nutq aktlari, implikatura, deksis va presuppozitsiyalarni ilmiy asosda tadqiq etish orqali yanada kengroq yoritiladi. Bu tushunchalarning mohiyatini ochish, ular bo'yicha mavjud olimlar qarashlari va nazariyalarini sintez qilish, shunindek, o'zbek va ingliz tillari misolida ularning namoyon bo'lish xususiyatlarini qiyosiy o'rganish lingvistik tadqiqotlarning dolzarb vazifalaridan biridir.

Nutq aktlari nazariyasi, lingvopragmatikaning fundamental yo'nalishi sifatida, tildan kommunikativ maqsadlarda foydalanish jarayonida so'zlovchilar tomonidan amalga oshiriladigan harakatlarni o'rganadi. Nutq akti deganda, so'zlovchining muayyan lingvistik ifoda orqali bajaradigan kommunikativ harakati tushuniladi. Bu harakat faqat so'zlarni aytish bilan cheklanib qolmasdan, balki so'zlovchiga ta'sir o'tkazish, munosabat bildirish, majburiyat olish yoki ijtimoiy aloqa o'rnatish kabi turli xil maqsadlarni ko'zlaydi. Nutqiy akt nazariyasining tamoyillari, obyektlari shakllanishida ikki buyuk tilshunos olimlarning ishlarini ta'kidlamay iloq yo'q. L.Ostinning 1962 yilda yaratilgan "How to do things with words" ilmiy asari hamda ozgina o'tib, L.Ostinning g'oyalarini rivojlantirgan olim sifatida qaraladigan J.Serlning ilmiy nazariyalarini hozirgi kundagi nutqiy aktlar tadqiqi yo'nalishida olib borilayotgan izlanishlarga asos poydevor bo'lib xizmat qilyapti.

Nutq aktlari nazariyasining asosiy tamoyillari J.L.Ostinning "How to Do Things with Words" (1962) asarida shakllantirilgan bo'lib, u har bir nutqiy ifodaning uchta asosiy jihatini ajratib ko'rsatgan. Bu uchlik lokutsiya, illokutsiya va perlokutsiya jarayonlaridir. Lokutsiya, o'z navbatida so'zlovchi tomonidan ijro etiladigan, ma'lum bir ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladigan grammatik, fonetik, leksik hamda sintaktik birliklarni aytish jarayoni sifatida ta'riflansa, illokutsiya-so'zlovchining o'z nutqi orqali amalga oshiradigan aniq kommunikativ harakati(masalan, so'rash, buyurish, va'da berish, maqtash, uzr so'rash va h.k.). Illokutsion kuch nutq aktining asosiy pragmatik mazmunini tashkil etish xarakteriga ega. Perlokutsion akt esa o'z navbatida, nutq aktining tinglovchiga ta'siri yoki unda keltirib chiqaradigan natija sifatida namoyon bo'ladi. Dunyo tilshunosligida nutqiy aktlar klassifikatsiyasiga bo'lgan qarashlar turli-tuman, ammo ularning orasida "illokutsion akt" larning eng yaxshi ta'rifi sifatida qaraladigan klassifikatsiya esa, J.L.Ostinning shogirdi hisoblangan J.Serlga qarashlidir. J.Serl o'zining "Illokutsion aktlarning klassifikatsiyasi" asarida quyidagicha izohlagan:

Assertivlar: bu turdag'i nutq aktlari asosan biror bir voqelik haqida ma'lumot berish yoki fikr bildirishda namoyon bo'ladi.(ta'kidlash, xabar berish, taxmin qilish, ko'rsatish ya'ni biror narsaga e'tibor qaratish, ishontirish). Ushbu illokutsion akt



turiga o'z tadqiqotimizdan kelib chiqib yondashadigan bo'lsak, o'zbek mediadiskursida quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

"Tibbiyot sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi president qarori bilan Toshkent davlat tibbiyot universiteti tashkil etiladi. Hujjatda qayd etilishicha, turdosh yo'nalishdagi OTMlarni ularning quvvati ilmiy salohiyati va boshqa ko'rsatkichlaridan kelib chiqib yiriklashtirish hamda tibbiy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashni samarali tashkil etish maqsad qilingan.[Daryo.uz 24-aprel,2025]

Berilgan ushbu mediadiskurs namunasi sifatida olingan xabardan anglashiladiki, xabarning


"Tibbiyot sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi prezidenti qarori bilan Toshkent davlat tibbiyot universiteti tashkil etiladi." Parchasida assertiv aktning yaqqol namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Bu yerda, davlat rahbari nomidan rasmiy bayonot berish bilan birgalikda *"Toshkent davlat tibbiyot universiteti tashkil etiladi"* degan ifoda orqali kelajakda sodir bo'ladigan faktni tasdiqlamoqda. Bu orqali o'quv muassasasining tashkil etilishi muqarrarligi e'lon qilinmoqda.

Xabarning keyingi, *"Hujjatda qayd etilishicha, turdosh yo'nalishdagi OTMlarni ularning quvvati, ilmiy salohiyati va boshqa ko'rsatkichlaridan kelib chiqib yiriklashtirish hamda tibbiy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashni samarali tashkil etish maqsad qilingan."* qismida esa assertiv aktning *"Hujjatda qayd etilishicha"* iborasi orqali xabarda keltirilayotgan ma'lumotning rasmiy manbara asoslanganligini tasdiqlab kelayotganini ko'rishimiz mumkin. Keyingi *"OTMlarni...yiriklashtirish hamda....samarali tashkil etish maqsad qilingan"* iborasida esa, qarorning yuzaga kelishidan ko'zlangan aniq, muqarrar maqsadni bayon qilish vazifasi turibdi. Bu, shu bilan birgalikda, kelajakdagi rejalashtirilgan ishlarning tasdig'i sifatida ham qaralishiga, hamda qarorda berilgan maqsadning muhimligiga urg'u berilmoqda.

Illokutsion aktlarning klassifikatsiyasiga ko'ra, keyingi turlari *direktivlar, ekspressivlar, deklarativlar* hamda *komissivlardan* iborat. Endigi tahlillarimizni ushbu nutqiy akt turlarining o'zbek mediadiskursida qanday ko'rinishga ega bo'lishini pragmatik jihatdan tahlil qilishga qaratamiz.

Direktivlar: Illokutsion aktlarning bu turi asosan tinglovchini biror harakatni bajarishga undash, biror bir harakatga yo'naltirish kabi vazifalarni bajaradi. Bu turdag'i aktini insonlar orasidagi buyurish, so'rash, maslahat berish, iltimos kabi muloqot holatlarida kuzatishimiz mumkin. Ushbu akt turiga misol qilib, [ma'rifat.uz](http://marifat.uz) saytidagi 14.02.2025 sanasida joylashtirilgan "Sog'lom inson-sog'lom millat" umummilliy harakati start oldi" nomli maqolani tahlil qilib o'tamiz.

.....Bugungi kunda boshoqli, donli mahsulot va meva-sabzavotlar iste'moli kamayib, tuzli, shak arli mahsulotlarga ehtiyoj ortib boryapti. Buning oldini olish



maqsadida, “Sog’lom inson-sog’lom millat” umummilliy harakati boshlandi.

Ushbu xabarni tahlil qiladigan bo’lsak, direktiv akt turning bevosita namunasi sifatida *Buning oldini olish maqsadida*, “*Sog’lom inson-sog’lom millat*” umumilliy harakati boshlandi jumlasini olishimiz mumkin. Bu jumlaning direktivlik darajasi yengil, e’lon qilish orqali yo’naltirishga qaratilgan bo’lib, bu gapdan anglashiladiki, sog’lom millat yaratishga qaratilgan harakat allaqachon boshlangani haqida e’lon qilinmoqda. Bu gapning imperativlik darajasi u darajada namoyon bo’lmasada, gapdan ko’zlanilgan maqsad jamiyatni ushbu harakatga e’tibor qaratishga hamda, uning doirasidagi tadbirlarni qabul qilishga yo’naltirishdir. Aynan shu xabarning davomi hisoblangan quyidagi jumlalarda esa direktiv aktning namoyon bo’lishini tahlil qilib ko’ramiz.

“.....*Unda: Sog’lom ovqatlanish va jismoniy faollik targ’iboti bilan har bir oilani qamrab olinishi, xalqchil va ta’sirchan ijtimoiy roliklar tayyorlab har kuni markaziy telekanallarda namoyish lozimligi ta’kidlangan. Shuningdek endi har bir mакtabda yakkakurash va jamoaviy olimpiya sport turlari bo’yicha kamida bittadan to’garak bo’lishi shartliligi belgilandi*” Xabarning bu parchasida direktivlik darajasi kuchliroq, lozimlikni ifodalash orqali yo’naltirish(majburiyat yuklash) ma’nolarida namoyon bolmoqda. Ayniqsa, bu yerdagi *lozimligi ta’kidlangan* iborasi aniq direktiv ma’noga ishora qilyapti. Kimga yoki qaysi tashkilotga bu vazifa yuklatilgani aniq aytilmagan bo’lsa ham, sog’lom ovqatlanish va jismoniy faollikni targ’ib qilish bilan jamiyatimizdagi har bir oilani qamrab olish va OAVlarda turlichayjtimoiy videoroliklar tayyorlab namoyish qilish zarurligi ta’kidlanmoqda. Yanada chuqurroq tahlilga yondashadigan bo’lsak, direktiv aktning *talab qilish* va *tavsiya qilish* turlarining faol ishtirokini ko’rishimiz mumkin.Bunga qo’shimcha ravishda esa, direktiv aktning asosiy vazifalaridan biri hisoblangan undash va yo’naltirish, da’vat qilish ma’nosи ayni shu jumlada yaqqol ko’zga tashlanadi, ya’ni bundagi da’vat tegishli organlar va shaxslarga nisbatan aniq yo’naltirilgan.

Shuningdek endi har bir mакtabda yakkakurash va jamoaviy olimpiya sport turlari bo’yicha kamida bittadan to’garak bo’lishi shartliligi belgilandi” mediadiskursning ushbu parchasi direktiv aktning buyurish, belgilab qo’yish kabi turlari ishtirokining guvohi bo’lishimiz mumkin. “*Shartliligi belgilandi*” iborasi aniq buyruqni yoki majburiy qoidani o’rnatish uchun xizmat qilmoqda.

Ekspressivlar: Bu turdagи illokutsion aktlar asosan so’zlovchining psixologik holatini ifodalash uchun xizmat qiladi. Bularga misol qilib, so’zlashuvchilar muloqotidagi minnatdorchilik bildirish, tabrilash, kechirim so’rash, afsuslanish kabi nutqiy aktlarni keltirishimiz mumkin. O’zbek mediadiskursida esa, bu turdagи illokutsion aktlarning namoyon bo’lishini “Xalq so’zi” gazetasining 22.04.2025yildagi sonidagi “Ziyolilik-Mansabmi, martabami, mas’uliyatmi” nomli maqoladan olingan parchani tahlili orqali ko’rib chiqishimiz mumkin.

Dunyo uzra hukm surayotgan globallashuv ming yillik qadriyatlar, tamoyillar, talablar mazmun-mohiyatini, maqsadini, muddaosini ayovsiz o’z domiga tortmoqda.



Bu jarayonlar asta sekinlik bilan, zamonaviy axborot texnologiyalari ko'magida goho ochiqcha, goho yashirin amalga oshirilmoqda. "Buning nimasi ajablanarli?" deganlarga shoshilmaslikni maslahat berardim.

Ushbu parchada ekspressivlikning yuzaga chiqishi bevosita, muallifning o'quvchiga bo'lган savoli orqali ifodalanyapti. Bunda muallif, maqolani o'qib turgan mutolaachiga ajablanishga shoshilmaslikni, bo'layotgan voqeа-hodisalarga teranroq qarash kerakligini bir paytning o'zida direktiv nutq akt orqali ekspressivlikning kuchli darajasi orqali ifodalashga harakat qilyapti. Bunda muallif o'zining ehtiyojkorligini, ogohlilikka chaqirish istagini ifodalab kelyapti. *"Shoshilmaslikni maslahat berardim"* iborasi bir qarashda muloyimlik bilan aytigan bo'lsada, uning zamirida muammoning jiddiyligiga ishora borligini ko'rishimiz mumkin. Bu o'quvchini fikrlashga, mulohaza qilishga, qaysidir ma'noda, milliy qadriyatlarimizga o'tkazilayotgan turli ma'naviy tazyiqlarga jiddiyroq qaashga hamda buni oldini olish uchun birday harakat boshlashga ham aqlan, ham ma'nan undaydi.


Xuddi shu maqolaning keyingi qismiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, *"Unutmasligimiz kerakki, qadriyatlarning yo'qolib borishi zamirida millatni o'zligidan uzoqlashtirishday yovuz maqsad yotibdi."*

Bu parchada assertiv nutq aktiga tegishli bo'lган oglantirish, ta'kidlash ma'nosi zamirida, kuchli ekspressiv bo'yoqqa egalikni ko'rishimiz mumkin. *"Unutmasligimiz kerakki"* iborasi muallifning bu fikrga qanchalik ahamiyat berayotganini ko'rsatadi. Yana bir ekspressivlikni yaqqol namunasi sifatida eptetni ishlatilganini misol qilishimz mumkin. Ya'ni, *"yovuz maqsad"* epiteti, muallifning bu jarayonga nisbatan kuchli salbiy munosabatini, nafratini ifodalab kelyapti. Ayni shu jumlalarning muallif tomonidan mohirona qo'llanilishi, globallashuv jarayonidagi milliyligimizga qaratilayotgan tahdidlarga nisbatan muallifdagi sal'biy munosabat, nafratning bevosita ushbu maqolani o'qiyotgan o'quvchida ham yuzaga kelishi, uning yuragida, ongida hislarida nafratning paydo bo'lishiga, muallifning sal'biy munosabati osonlik bilan o'quvchiga ko'chishiga yaxshigina turtki vazifasini bajaradi.

"Bu o'rinda "yotibdi" so'zini biz shartli ravishda qo'llayapmiz. Aslida, u yotgani yo'q allaqachon o'rnidan turgan. Yuryapti, hatto yuguryapti"

Maqolaning ushbu qismi naqadar ekspressivlikka to'laligini, bir o'qishdayoq anglash qiyin emas. Bu yerda muallif *"yotibdi"* so'zini shartli ekanligini ta'kidlab, keyin vaziyatning yanada jiddiyligini metaforalar orqali kuchaytiradi: *"o'rnidan turgan"*, *"yuryapti, hatto yuguryapti"*. Bu metaforalar globallashuv jarayonining faolligini, tezligini va xavfliligini emotsiyal tarzda yetkazadi. Ushbu metaforik tasvirlash retorik strategiya sifatida ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchiga kuchli emotsiyal ta'sir o'tkazadi va muallifning pozitsiyasini kuchaytiradi.

Komissivlar: Bu gapiruvchining keljakda biror harakatini bajarish majburiyatini



olganligini ifodalaydi. Bularga va'da berish, taklif qilish, qasamyod qilish kabi aktlar kiradi. Bu turdag'i nutq aktlarini mediadiskursda taqdim etilgan prezident nutqlari, deputatlar nutqlarida ko'rishimiz mumkin. Kun.uz saytining 26.04.2025-yil sanasida joylangan "*Tramp o'tgan juma Rossiya-Ukraina muzokaralari uchun yaxshi kun bo'lganini aytdi*" sarlavhali postidagi Trampning nutqiga komissiv akt turning tahliliga namuna sifatida qaralsa bo'ladi:

"Hoziroq qon to'kilishini to'xtating. Biz bu shafqatsiz va ma'nosiz urushni tugatishga yordam berish uchun qayerda kerak bo'lsa, shu yerda bo'lamiz"

Donald Trampning *Truth* ijtimoiy tarmog'idagi ushbu qisqa xabarining tahlili shuni ko'rsatadi, hozirgi kunda zamonaviy siyosiy diskursning o'ziga xos xususiyatlarini, xususan ijtimoiy media platformalarining diplomatik va siyosiy bayonotlar uchun muhim maydonga aylanganini namoyon etadi. Ushbu gapda, Donald Tramp "*Biz*" olmoshi orqali AQSHni nazarda tutib, kelajakda ushbu urushni tugatishga yordam berish uchun harakat qilishga tayyorligini va'da qilmoqda, yoki majburiyat olmoqda. "*Qayerda kerak bo'lsa, shu yerda bo'lamiz!*" degan ibora bu majburiyatning qanchalik keng qamrovli ekanligini ko'rsatadi.

Deklarativlar: Bu turdag'i nutq aktlari gapirilishi bilan voqelikni o'zgartiradigan nutq aktlari hisoblanadi. Bularga tayinlash, e'lon qilish, nikoh o'qish, ishdan bo'shatish kabi aktlar kiradi. Telegram ijtimoiy platformasidagi *Edu.uz* ta'lim yangiliklari axborot kanalidan olingan quyidagi manbada deklarativ aktlarning namoyon bo'lishini ko'rib chiqamiz.

"Tibbiyot sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari tog'risida" gi Prezident qarori (PQ-149-son, 22.04.2025-y) qabul qilindi.


Qarorga ko'ra:

-*Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti va Toshkent stomatologiya institute negizida Toshkent davlat tibbiyot universiteti tashkil etiladi;*

-*Toshkent tibbiyot akademiyasining markaziy ilmiy-tekshirish laboratoriysi negizida Tibbiyot ilmiy-innovatsion tadqiqot institute faoliyati yo'lga qo'yiladi"*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-apreldagi PQ-149-sonli "*Tibbiyot sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida*" gi qaroridan olingan ushbu xabar o'zbek qonunchilik diskursida deklarativ aktlarning muhimligini namoyon etadi. Deklarativ nutq aktlarining asosiy vazifasi biron bir voqelikni o'zgartirish xususiyatiga ega bo'lib, albatta bu borada muayyan institutsional kontekst va vakolatli shaxsning bayonoti muhim rol o'ynaydi. Ayni berilgan xabarda esa, Prezident qarori O'zbekiston Respublikasining oily davlat organi tomonidan qabul qilinishi, bayonotning institutsional kuchini va ijtimoiy voqelikni o'zgartirish potensialini belgilaydi.

-*Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti va Toshkent stomatologiya institute negizida Toshkent davlat tibbiyot universiteti tashkil etiladi;*



Davlatimiz prezidentining ushbu bayonotida J.Serlning klassik deklarativ aktiga to’liq muvofiqlikni ko’rishimiz mumkin. Vakolatli organ (Prezident Qarori orqali) uchta alohida ta’lim muassasasini birlashtirib, yangi bir institutsional tuzilmani –Toshkent davlat tibbiyot universitetini tashkil etmoqda. Bu bayonot orqali yangi ijtimoiy- huquqiy voqelik yaratildi.

Muhokama

J.Serl klassifikatsiyasiga ko’ra, nutq aktlarining turlicha namoyon bo’lishini mediadiskursda tadqiqot qilishimiz natijasida, bu aktlar naqadar nutqimizda, har bir maqsad, suhbatdan ko’zlangan niyatlarimizda faol ekanligini ko’rishimiz mumkin. Bu nutq aktlarning o’z vazifasi mavjudligi, har biri muloqot jarayonida tinglovchiga ma’lum bir ta’sir o’tkazish vazifasini bajarishini yuqorida keltirib o’tilgan namunalarda ko’rib chiqdik. Bu kabi tahlillarda, nutq konteksti, diskursiv tahlillar hamda pragmatik jihatlar ham ahamiyatlari ekanligini guvohi bo’ldik. Tahlildan olingen natijalarga ko’ra, o’zbek ommaviy axborot vositalari materiallarida nutq aktlarining barcha asosiy turlari faol qo’llaniladi, biroq ularning pragmatic realizatsiyasi madaniy-lingvistik kontekstning o’ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. O’zbek mediadiskursidagi nutq aktlarining pragmatik interpretatsiyasi nafaqat ularning lingvistik shakliga, balki kengroq sotsiokultural kontekstga ham bog’liq. Kommunikativ muvaffaqiyatga erishish uchun kommunikator auditoriyaning madaniy normalari, qadriyatlari va kommunikativ kutuvlarini hisobga olishlari zarur.

Xulosa.

O’zbek mediadiskursida nutq aktlari nazariyasini pragmatic jihatdan o’rganish shuni ko’rsatadiki, ushbu aktlar ommaviy axborot vositalari xabarlarining kommunikativ samaradorligini ta’minlashda muhim rol o’ynaydi. Maqolada tahlil qilingan misollar orqali assertivlar axborot yetkazish va faktlarni tasdiqlashda, direktivlar auditoriyani muayyan harakatga undashda, ekspressivlar muallifning munosabatini ifodalashda, komissivlar kelajakdagi harakatlar bo’yicha majburiyatni olishda, deklarativlar esa voqelikni o’zgartirishda faol qo’llanishi namoyon bo’ldi. Tadqiqot shuningdek, nutq aktlarining turlari, va ularning pragmatik funksiyalari mediadiskursning janri, konteksti va kommunikativ maqsadlariga bog’liq ekanligini ko’rsatdi. Kelgusida o’zbek mediadiskursida nutq aktlarining janr xususiyatlarini, ularning diskurs tuzilishidagi o’rnini va turli kommunikativ strategiyalardagi rolini chuqurroq o’rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, nutq aktlarining madaniyatlararo qiyosiy tahlili o’zbek kommunikativ xatti-harakatining universal va o’ziga xos jihatlarini aniqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Austin, J. L. (1962). How to do things with words. Oxford: Clarendon Press.
2. Chomsky, N. (1965). Aspects of the theory of syntax. Cambridge, MA: MIT Press.
3. Hakimov, M. (2010). O’zbek pragmalingvistikasi asoslari [Fundamentals of



Uzbek pragmalinguistics]. Toshkent: Nurafshon business.

4. Levinson, S. C. (2008). Pragmatics. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Mey, J. L. (1994). Pragmatics as a social science. In R. E. Asher & J. M. Y. Simpson (Eds.), The encyclopedia of language and linguistics (Vol. 6, pp. 3261-3267). Oxford: Pergamon Press.
6. Searle, J. R. (1969). Speech acts: An essay in the philosophy of language. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Searle, J. R. (1976). A classification of illocutionary acts. *Language in Society*, 5(1), 1-23.
8. Senft, G. (2014). Understanding pragmatics. Edinburgh: Edinburgh University Press.

Internet manbalari:

1. Daryo.uz. (2025, 24-aprel). Tibbiyat sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida [About measures to radically improve the system of training personnel in the field of medicine]. Retrieved from [<https://daryo.uz/2025/04/24/yangi-oquv-yilidan-toshkent-davlat-tibbiyat-universiteti-tashkil-etaladi>.]
2. Edu.uz. (2025, 22-aprel). Tibbiyat sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari tog‘risida [About measures to radically improve the system of training personnel in the field of medicine] (PQ-149-son). Telegram. Retrieved from [t.me/eduuz]
3. Kun.uz. (2025, 26-aprel). Tramp o‘tgan juma Rossiya-Ukraina muzokaralari uchun yaxshi kun bo‘lganini aytdi [Trump said last Friday was a good day for Russia-Ukraine negotiations]. Retrieved from [”<https://kun.uz/kr/news/2025/04/26/tramp-otgan-juma-rossiya-ukraina-muzokaralari-uchun-yaxshi-kun-bolganini-aytdi>”]
4. Ma’rifat.uz. (2025, 14-fevral). “Sog‘lom inson – sog‘lom millat” umummilliy harakati start oldi [The national movement "Healthy person - healthy nation" has started]. Retrieved from [t.me/ma’rifatuz]
5. Xalq so‘zi. (2025, 22-aprel). Ziyolilik – mansabmi, martabami, mas’uliyatmi? [Intellectualism – is it a position, a status, or a responsibility?]. Rustam Xolmurodov, “Xalq so‘zi” gazetasi, 22.04.2025, “Ziyolilik-mansabmi, martabami, mas’uliyatmi?” 3-b.